

**O‘ZBEK TILI, ADABIYOTI VA FOLKLORI INSTITUTI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.02/30.12.2019.Fil.46.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

O‘ZBEK TILI, ADABIYOTI VA FOLKLORI INSTITUTI

HAKIMOV MUNISJON MURODOVICH

**JAMOL KAMOL IJODINING MAVZU KO‘LAMI VA G‘OYAVIY-BADIIY
XUSUSIYATLARI**

10.00.02 – O‘zbek adabiyoti

**FILOLOGIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Toshkent – 2024

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Oglavlениye avtoreferata dissertasii doktora filosofii (PhD)

Content of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)

Hakimov Munisjon Murodovich

Jamol Kamol ijodining mavzu ko‘lami va g‘oyaviy-badiiy xususiyatlari..... 3

Khakimov Munisjon Murodovich

The subject scope and ideological-artistic features of Jamal Kamal's work..... 21

Хакимов Мунисжон Муродович

Тематика и идейно-художественные особенности творчества Джамаля Камаля..... 39

E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati

Spisok opublikovannykh rabot..... 43
List of published works.....

**O‘ZBEK TILI, ADABIYOTI VA FOLKLORI INSTITUTI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.02/30.12.2019.Fil.46.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

O‘ZBEK TILI, ADABIYOTI VA FOLKLORI INSTITUTI

HAKIMOV MUNISJON MURODOVICH

**JAMOL KAMOL IJODINING MAVZU KO‘LAMI VA G‘OYAVIY-BADIIY
XUSUSIYATLARI**

10.00.02 – O‘zbek adabiyoti

**FILOLOGIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Toshkent – 2024

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.2.PhD/Fil3374 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya O'zbekiston Fanlar akademiyasi O'zbek tili, adabiyoti va folklori institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz) Ilmiy kengash veb-sahifasining www.tai.uz manziliga hamda "Ziyonet" axborot-ta'lim portali www.ziyonet.uz manziliga joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Ochilov Ergash Zokirjonovich
filologiya fanlari nomzodi, katta ilmiy xodim

Rasmiy opponentlar:

Qahramonov Qurdosh Yalg'ashevich
filologiya fanlari doktori, professor

Ulug'ov Abdulla O'zbekovich
filologiya fanlari nomzodi, professor

Yetakchi tashkilot:

Guliston davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi O'zbek tili, adabiyoti va folklori instituti huzuridagi DSc.02/30.12.2019.Fil.46.01 raqamli Ilmiy kengashning 2024-yil "27 dekabr" soat 16 daqiqa majlisida bo'lib o'tadi.

(Manzil: 100060, Toshkent shahri, Shahrisabz tor ko'chasi, 5 uy. Tel.: (71) 233-36-50; faks: (71) 233-71-44; e-mail: uztafi.@academy.uz).

Dissertatsiya bilan O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining Asosiy kutubxonasida tanishish mumkin (85 raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 100100, Toshkent shahri, Ziyolilar ko'chasi, 13. Tel: (71) 262-74-58.

Dissertatsiya avtoreferati 2024-yil "16" dekabr kuni tarqatildi.
(2024 yil "16" dekabr daqiqa 12 raqamli reyestr bayonnomasi)



B.To'xliyev
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy
kengash raisi, filol.f.d., professor



R.Barakayev
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy
kengash kotibi, filol.f.n., professor



U.Hamdov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy
kengash huzuridagi ilmiy seminar
raisi, filol.f.d., professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon adabiyotshunosligida muayyan muallif mahorat qirralari, ijodining mavzu ko‘lami, asarlarining g‘oyaviy-badiiy xususiyatlari, faol poetik shakllarning xilma-xilligi, voqelikni badiiy idrok etishdagi yetakchi tamoyillar, an‘ana va novatorlik muammolari singari masalalar doim diqqat markazida turadi. Jumladan, biografik tahlil usuli orqali muallifning individual uslub qirralari, janr, poetik shakl, mavzu, g‘oya va obrazlar olamini ochib berish muhim ahamiyat kasb etadi.

Dunyo adabiyotshunosligida mavzu ko‘lami va badiiy g‘oyaning muayyan xalq adabiyotida alohida o‘rin tutadigan ijodkorlar asarlari misolida o‘rganilishi muallifning ilmiy, badiiy, falsafiy, ijtimoiy-siyosiy dunyoqarashi miqyoslarini aniqlash borasida sezilarli natijalarga erishilgan. Ijodkor uslubi, poetik mahorati, adabiy jarayondagi mavqeyini tanlangan mavzu va g‘oyalar miqyosida o‘rganishga e‘tibor singarilar shu sababli ham adabiyotshunoslikning doimiy dolzarb muammolaridan hisoblanadi.

O‘zbek adabiyotshunosligida turli davrlar adabiyotining rivojiga sezilarli hissa qo‘shgan yetakchi ijodkorlar asarlarining davr nuqtayi nazaridan dolzarb muammolar talqiniga bag‘ishlangan jihatlarini o‘rganishga e‘tibor alohida o‘rin tutadi. «Adabiyot va san‘atga, madaniyatga e‘tibor – bu, avvalo, xalqimizga e‘tibor, kelajagimizga e‘tibor ekanini, buyuk shoirimiz Cho‘lpon aytganidek, adabiyot, madaniyat yashasa, millat yashashi mumkinligini unutishga bizning aslo haqqimiz yo‘q»¹ ekan, adabiyotshunoslikning barcha sohalarida zamonaviy talablar darajasidagi tadqiqotlar olib borish ham shu qadar dolzarbdur. Jumladan, O‘zbekiston xalq shoiri Jamol Kamol she‘riyati mavzu jihatidan naqadar ko‘lamdor bo‘lsa, asarlarida aks etgan g‘oyalar insoniyatni ezgulikka, birdamlikka, taraqqiyotga, adolatga, tenglikka, iymonga, halollikka da‘vat qilishi nuqtayi nazaridan bu ijod namunalarini mavzu mundariyasi va g‘oyaviy-badiiy jihatdan tadqiq etish muhim ahamiyatga ega. Ijodkor badiiy niyatining amalga oshishida syujet, obraz va lirik unsurlarning o‘rni salmoqli. Ularning mavzuni yoritish, g‘oyani ifodalashdagi o‘rnini shoir ijodi misolida o‘rganish mavzuga monografik yondashuvni talab qiladi. Ayni shu jihatlar tadqiqot mavzusining dolzarbligini ko‘rsatadi.

Tadqiqot Prezidentimizning 2017-yil 17-fevraldagi PF-4947-son «O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida»gi Farmoni, 2017-yil 24-maydagi PQ-2995-son «Qadimiy yozma manbalarni saqlash, tadqiq va targ‘ib qilish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida», 2017-yil 13-sentyabrdagi PQ-3271-son «Kitob mahsulotlarini nashr etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ‘ib qilish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar dasturi to‘g‘risida»gi qarorlari, shuningdek, mazkur yo‘nalishdagi bir qator me‘yoriy-huquqiy hujjatlardagi ko‘rsatmalarning amaldagi ijrosi sifatida xizmat qiladi.

¹ Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг “Адабиёт ва санъат, маданиятни ривожлантириш – халқимиз маънавий олами юксалтиришнинг мустахкам пойдеворидир” мавзусида Ўзбекистон ижодкор зиёлилари вакиллари билан учрашувдаги маърузаси // Халқ сўзи. 2017, 4 август.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalarni rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga bog‘liqligi. Dissertatsiya O‘zbekiston Respublikasi fan va texnologiyalari taraqqiyotining «Demokratik va huquqiy jamiyatni ma‘naviy-axloqiy va madaniy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni rivojlantirish» yo‘nalishiga muvofiq tarzda amalga oshirildi.

Mavzuning o‘rganilganlik darajasi. Jamol Kamol ijodiga oid bir qancha maqola va tadqiqotlar yaratilgan. Jumladan, O.Safarov, N.Rahimjonov, Ibrohim Haqqul, Asror Samad, Sh.Hasanov, D.Quvvatova, Xurshid Davron, R.Raupov, D.Rajabov, V.Qodirov, Q.To‘qsonov, G.Ashurova, Sh.Aldasheva, D.Nazarova, K.Qarshiyev, S.Akramova kabilarning ilmiy izlanishlari bu jihatdan ahamiyatga ega². Professor O.Safarov shoirning umr yo‘li va ijodiga umumiy yo‘sinda to‘xtalib o‘tsa, professor N.Rahimjonov ijodkor she‘riyatining yetakchi xususiyatlarini tahlilga tortgan. Professor Ibrohim Haqqul shoirning hasbi hol yo‘nalishdagi va jamiyat muammolari ko‘tarilgan she‘rlari, adabiyotshunos Asror Samad mumtoz she‘rlari haqida fikr yuritgan. Filologiya fanlari doktorlari Sh.Hasanov va D.Quvvatovalarning dissertatsiyalarida Jamol Kamolning dostonnavislik mahorati yoritib berilgan. Xurshid Davron, R.Raupovlar maqolalarida Jamol Kamol ijodidagi adolat va haqiqat uchun kurashchanlik borasida so‘z yuritilsa, D.Rajabov, V.Qodirovlar shoir she‘rlarining shakliy o‘ziga xosligiga diqqat qaratganlar. Ijodkorning tarjimonlik mahorati E.Ochilov va Q.To‘qsonov ilmiy izlanishlarida tadqiq etilgan. Shuningdek, G.Ashurova o‘z tadqiqotida Jamol Kamol g‘azal va ruboiylaridagi shakliy barqarorlik va yangilanishlardan bahs yuritadi. Sh.Aldasheva Jamol Kamol sakkizliklaridagi ta’sir va talqin hamda badiiy imkoniyatlarni tahlilga tortgan. Jamol Kamol ijodi yuzasidan dissertatsion tadqiqot yaratgan filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktorlari D.Nazarova shoir ijodining poetik xususiyatlari, K.Qarshiyev bu she‘riyatning shakily jihatlariga e’tibor qaratganlar. S.Akramova shoir she‘riyatidagi tojikcha-o‘zbekcha so‘zlarni tilshunoslik nuqtayi nazaridan tadqiq etgan.

² Сафаров О. Улкан шоир ва истеъдодли таржимон / Аср ҳақиқатларининг шеърий тараннуми. Зиёрат замнамалари ёхуд “Сафар дафтари” шеърий туркуми. Бухоро адабий ҳаракатчилиги тарихидан лавҳалар. – Бухоро: Дурдона, 2015 – Б. 379–405; Раҳимжонов Н. Ёруғликнинг ҳарорат даражаси / Жамол Камол. Булбулнома. VI жилд. – Тошкент: Янги аср авлоди. 2018. – Б. 451–477; Ҳаққулов И. Шеърият – дард ва умид демак / Жамол Камол. Сайланма. Олти жилдлик. I жилд. Аср билан видолашув. – Тошкент: Ғ. Ғулом номидаги НМУ, 2018. – Б. 5-21; Самад А. Сувайдо. Жамол Камол. Яна кўнглимда ул ой. – Тошкент: MERIYUS, 2010. – Б. 3–14; Ҳасанов Ш. Истеъдоднинг рангин жилолари // Шарқ юлдузи, 2019, №1. – Б. 109-115; Қувватова Д. XX аср ўзбек дostonчилигининг тараққиёт хусусиятлари: Филол. фан. д-ри ... дисс. – Тошкент, 2016. – 268 б.; Даврон Х. Кўкси куйик шоир. <https://kh-davron.uz/kutubxona/uzbek/jamol-kamol-xurshid-davron-koksi-kuyik-shoir.html>; Очилов Э. Рубоий таржимасида шакл ва мазмун бирлиги: Филол. фан. номз. ... дисс. – Тошкент, 1994. – 168 б.; Раупов Р. Миллатнинг ташриф қoғoзи ёки қалбини ҳақиқатга топширган шоир. <https://kh-davron.uz/yangiliklar/muborak-kin/jamol-kamol-adabiyot-nurli-soz.html>; Ражабов Д. Бадий образ ва ритм табиати. – Бухоро: Бухоро давлат университети, 2002. – 102 б.; Қодиров В. Ҳозирги замон ўзбек ғазалларининг айрим хусусиятлари: Филол. фан. номз. ... дисс. – Тошкент, 1993. – 154 б.; То‘қсанов Қ. Jamol Kamol – mohir tarjimon // BuxDU Ilmiy axboroti, 2020, № 4. – В.181-190; Ашурова Г. Абдулла Орипов шеъриятида анъана ва бадий маҳорат (образ, ғоя ва тасвир): Филол. фан. номз. ... дисс. – Тошкент, 2008. – 148 б.; Алдашева Ш. 70-90 йиллар ўзбек лирикасида тўртлик, саккизлик ва шеърий туркум табиати: Филол. фан. бўйича фалс. д-ри ... дисс. автореф. – Тошкент, 2019. – 150 б.; Назарова Д. Жамол Камол шеърияти поэтикаси: Филол. фан. бўйича фалсафа д-ри (PhD) ... дисс. – Бухоро, 2021. – 166 б. Қаршиев К. Жамол Камол шеъриятида жанрлар ва шакллар ранг-баранглиги: Филол. фан. бўйича фалсафа д-ри (PhD) ... дисс. – Самарқанд, 2022. – 149 б.; Akramova S. Jamol Kamol she‘riyatida tojikcha-o‘zbekcha leksemalarning leksik-semantik xususiyatlari. Filol.fan. bo‘yicha falsafa d-ri (PhD) ... diss. avtoref. – Samarqand, 2023. – 47 b.

Biroq mazkur maqola va tadqiqotlar Jamol Kamol ijodining mavzu ko'lamini, g'oyaviy-badiiy jihatlarini yaxlit va tizimli tarzda o'rganishni o'z oldiga maqsad qilib qo'ymagan. Jamol Kamol ijodining mavzu ko'lamini belgilash, obrazlar olamini kuzatish, ularda ilgari surilayotgan g'oyalarning ifoda etilishini monografik o'rganish alohida tadqiqotni talab qiladi.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasi ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya mavzusi O'zR FA O'zbek tili, adabiyoti va folklori instituti ilmiy tadqiqot ishlari rejasining OT – F1-80 «Globallashuv muammolarining badiiy talqini va zamondosh obrazi» nomli fundamental loyihasi doirasida bajarildi.

Tadqiqotning maqsadi. Mazkur tadqiqotning maqsadi Jamol Kamol ijodining mavzu ko'lamini belgilash, obrazlar olami, g'oyaviy-badiiy xususiyatlari va shoir uslubining o'ziga xosliklarini yoritib berishdan iboratdir.

Tadqiqotning vazifalari:

Jamol Kamol ijodini mavzu ko'lamini jihatidan o'rganish va tasniflash, muayyan g'oya ifodasidagi mahoratini tadqiq etish;

shoir publitsistikasida ijtimoiy illat o'laroq ko'tarilgan dolzarb muammolarning she'rga aylanib, badiiy qiyofaga ega bo'lish jarayonini tekshirish;

shoirning she'riy obrazlarni qo'llashdan ko'zlagan maqsadi va ularning mavzu va g'oyani ifodalashdagi o'rni, tarixiy obrazlarni davrga xizmat qildirish usullarini tahlil qilish;

Jamol Kamol olg'a surgan yetakchi g'oyalarning jamiyat ma'naviy qiyofasini shakllantirishdagi o'rnini ko'rsatish;

ijodkorning dostonchilikdagi tajribalarini g'oya, obraz va xarakter yaratish, tasvir va ifoda mahorati nuqtayi nazaridan ko'rsatib berish.

Tadqiqotning obyekti qilib Jamol Kamol adabiy merosini o'zida jamlagan «Asr bilan vidolashuv», «Yonayotgan dala», «Abadiyat ostonasida», «She'r san'ati», «Anvar Mirzo hikoyatlari», «Bulbulnoma», «Shayxurrais» kabi yetti jildlik tanlangan asarlari³ va turli yillarda nashr qilingan to'plamlari, matbuotda e'lon qilingan maqolalari olindi.

Tadqiqotning predmeti Jamol Kamol ijodining mavzu ko'lamini, obrazlar olami, she'riyatidagi an'anaviylik va unga shoirning yondashuvi, ijodkorning mavzuni yoritish va g'oyani ifodalashdagi uslubi kabi masalalarni ijodiy o'ziga xoslik va qiyosiy tipologik jihatdan ilmiy-nazariy asoslashdan iborat.

Tadqiqotning metodologik asosi va tadqiq usullari. Mazkur tadqiqotni yaratishda adabiyotshunoslikning qiyosiy-tipologik, biografik, lingvistik va analitik usullariga asoslandik.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

Jamol Kamol ijodining vatan, istiqloq, ishq, tabiat, axloq kabi bir qator mavzular ko'lamini va ularning she'r, doston, publitsistik maqola singari adabiy matn bilan bog'liq ijtimoiy, ma'rifiy, madaniy, ta'limiy mazmunlari ochib berilgan;

shoir ijodining g'oyaviy-badiiy xususiyatlari yoritilib, lafz (qonun, burch va kelishuvga sadoqat), yelkadoshlik, mehmondo'stlik, rozi-rizolik, ota-onaga hurmat

³ Жамол Камол. Сайланма. VII жилдлик. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2018 – 2022.

kabi milliy va diniy bag'rikenglik, o'zaro totuvlik, barcha millat-u elatlarning urf-odatlarini e'zozlash singari umuminsoniy qadriyatlarga muallif yondashuvi dalillangan;

Jamol Kamolning sevgi-muhabbat, yurtga sadoqat, mehnatsevarlik kabi mavzularni yoritishda Vatan, ona, do'st, ma'shuqa, oshiq, ko'z, dehqon, g'arib singari obrazlardan foydalanishi davr va zamon o'zgarishlariga doir mustaqillik, vatanparvarlik, bunyoqkorlik g'oyalariga yondashuvi asosida isbotlangan;

Jamol Kamolning «Shayxurrais», «Navoiy muhabbati», «Faylasuf», «Shayxzoda» dostonlari kompozitsiya, syujet, obrazlar tizimi, ma'nolar olami kabi jihatlariga ko'ra ochib berilib, tashbeh, mubolag'a, tashxis, ruju', tardi aks singari badiiy san'atlarning she'riy matn mazmunini yuzaga chiqarishi isbotlangan.

Tadqiqotning amaliy natijasi quyidagilardan iborat:

Jamol Kamol asarlarining mavzu ko'lami rang-barang bo'lib, ular o'z ichida kichik mavzularga bo'linishi misollar asosida belgilangan;

shoir she'riyatida qaysi mavzu yoritilmasin, ijodkor barmoq vaznida ham, aruz vaznida ham keng imkoniyatlardan foydalana olgan;

Jamol Kamolning bir mavzuga turli rakurslardan yondashganligi misollar asosida isbotlangan;

dunyo, ko'ngil, tun kabi an'anaviy obrazlar bugungi kun muammolarini yoritishda ham keng qo'llana olishi shoir ijodi misolida yoritib berilgan;

Jamol Kamol dostonlarida ilgari surilgan g'oyalar badiiy ifodasidagi yetakchi xususiyatlar ochib berilgan;

tarixiy obrazlarning shoir ijodidagi o'ziga xos o'rni, ularning millat va xalq birligi yo'lidagi xizmatlarining badiiy adabiyotda aks etishi ko'rsatilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi mavzuning tadqiq doirasi aniq ko'rsatilishi, xulosalarning ilmiy-nazariy asoslanganligi, qiyosiy-tipologik, analitik va germeneytik usullar qo'llanganligi hamda tahlil mobaynida adabiyot nazariyasi, xalq og'zaki poetik ijodi, o'zbek mumtoz adabiyoti va XX asr o'zbek she'riyati poetikasi qonuniyatlaridan kelib chiqqanligi bilan izohlanadi.

Tadqiqotning ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati Jamol Kamol ijodining mavzu ko'lami, g'oyaviy-badiiy xususiyatlari, obrazlar olamidagi o'ziga xos jihatlar, ijodi mavzu jihatidan ko'lamdor ekanligi, mazuni yoritishda turli usullardan foydalanish imkoniyati kengligi, g'oyaning badiiy ifodasida ijodkor qator manbalardan oziqlanganligi, mumtoz adabiyotga xos badiiy imkoniyatlardan bugungi adabiyotda ham mahorat bilan foydalana olish mumkin ekanligi aniqlanganligida namoyon bo'lib, keltirilgan nazariy fikr-mulohazalardan o'zbek adabiyoti va adabiyotshunosligi tarixini o'rganishda, «Adabiyot nazariyasi», «Adabiyotshunoslikka kirish», «Hozirgi o'zbek adabiyoti», «Badiiy tahlil asoslari» kabi fanlarini o'qitishda, shu fanlar bo'yicha darsliklar, o'quv qo'llanmalarini yaratishda tayanch manba bo'lib xizmat qilishi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati tadqiqot natijalaridan nafaqat Jamol Kamol ijodining mavzu ko'lami, uning g'oyaviy-badiiy olamini o'rganuvchilar, balki adabiyot nazariyasi, adabiy jarayon va adabiy tanqid, badiiy publitsistika, hozirgi zamon o'zbek she'riyati vakillarining ijodi bilan qiziquvchilar, badiiy asar mavzusi,

g'oyasi, obraz va xarakterga oid tadqiqot olib boruvchilarga, filologiya fakultetlari talabalariga qo'llanma sifatida foydalanishga tavsiya etish mumkinligida namoyon bo'ladi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Jamol Kamol mavzu ko'lami va g'oyaviy-badiiy xususiyatlari tadqiqining ilmiy xulosalari quyidagi yo'nalishlarda joriy qilingan:

Jamol Kamol ijodining vatan, istiqlol, ishq, tabiat, axloq kabi bir qator mavzular ko'lami va ularning she'r, doston, publisistik maqola singari adabiy matn bilan bog'liq ijtimoiy, ma'rifiy, madaniy, ta'limiy mazmunlari ochib berilgani bilan bog'liq xulosalardan Qo'qon davlat pedagogika institutida bajarilgan AL-32210302020 «Qo'qon adabiy muhiti ijodkorlari hayoti va ijodi bo'yicha veb sayt va elektron platforma yaratish» mavzusidagi amaliy loyihada foydalanilgan (Qo'qon davlat pedagogika institutining 2024 yil 28-martdagi 356/04-son ma'lumotnomasi). Natijada Qo'qon adabiy muhiti vakillari ijodidagi uslubiy xoslik, an'anaviylik va mahorat masalalari yoritilgan;

shoir ijodining g'oyaviy-badiiy xususiyatlari yoritilib, lafz (qonun, burch va kelishuvga sadoqat), yelkadoshlik, mehmondo'stlik, rozi-rizolik, ota-onaga hurmat kabi milliy va diniy bag'rikenglik, o'zaro totuvlik, barcha millat-u elatlarning urf-odatlarini e'zozlash singari umuminsoniy qadriyatlarga muallif yondashuvi dalillanganiga oid yangiliklardan Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetida bajarilgan IL-402104474 «bolalaradabiyoti.uz» elektron platforma va uning mobil ilovasini yaratish» mavzusidagi innovatsion loyihada foydalanilgan (Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetining 2024-yil 30-sentabrdagi 04/1-2663 son ma'lumotnomasi). Natijada platforma va uning mobil ilovasi vazifalari to'g'ri belgilangan va zaruriy ma'lumotlar bilan boyitilgan;

Jamol Kamolning sevgi-muhabbat, yurtga sadoqat, mehnatsevarlik kabi mavzularni yoritishda Vatan, ona, do'st, ma'shuqa, oshiq, ko'z, dehqon, g'arib singari obrazlardan foydalanishi davr va zamon o'zgarishlariga doir mustaqillik, vatanparvarlik, bunyoqkorlik g'oyalariga yondashuvi asosida isbotlangani haqidagi xulosalardan Toshkent davlat pedagogika universitetida 2015-2017 yillarda bajarilgan F-1-118 "Navoiy obrazining tasviriy va talqinlariga oid o'quv qo'llanmani tayyorlash va nashr etish" nomli loyiha doirasida belgilangan vazifalar ijrosini ta'minlashda foydalanilgan (Toshkent davlat pedagogika universitetining 2024 yil 9-apreldagi 11-05-16/34-son ma'lumotnomasi). Buning samarasi o'laroq, loyihada Jamol Kamol ijodida Navoiy obrazining millatning yo'lchi yilduzi, ma'naviyat otasi, buyuk gumanist singari qiyofalari oydinlashtirilgan;

Jamol Kamolning «Shayxurrais», «Navoiy muhabbati», «Faylasuf», «Shayxzoda» dostonlari kompozitsiya, syujet, obrazlar tizimi, ma'nolar olami kabi jihatlariga ko'ra ochib berilib, tashbeh, mubolag'a, tashxis, ruju', tardi aks singari badiiy san'atlarning she'riy matn mazmunini yuzaga chiqarishi isbotlanganiga doir xulosalardan O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi «Madaniyat va ma'rifat» telekanali» davlat muassasasining Jamol Kamol hayoti va ijodiga bag'ishlangan «Umr daftari» ko'rsatuvi hamda Navoiy tavalludining 582 yilligiga atab o'tkazilgan telemarafon ssenariylarini tayyorlashda foydalanilgan (O'zbekiston Milliy

teleradiokompaniyasi «Madaniyat va ma’rifat» telekanali» davlat muassasasining 2024-yil 23-apreldagi 01-16/98-son ma’lumotnomasi). Natijada Jamol Kamol hayoti va ijodi, bugungi ijodkorlarning Navoiydan ilhomlanishi keng jamoatchilikka yetkazilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot ishi natijalari 8 ta (3 ta xalqaro va 5 ta respublika) ilmiy-nazariy anjumanlarda aprobatsiyadan o’tgan.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinishi. Dissertatsiyaning umumiy mavzusi bo’yicha jami O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 9 ta maqola, jumladan, 8 tasi respublika va 1 tasi xorijiy jurnallarda e’lon qilingan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uch bob, xulosa hamda foydalanilgan adabiyotlar ro’yxatidan tarkib topgan. Tadqiqotning umumiy hajmi 145 sahifadan iborat.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida mavzuning dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning o’rganilganlik darajasi, maqsadi va vazifalari, obyekti va predmeti tavsiflangan, ishning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo’nalishiga mosligi ko’rsatilgan, tadqiqot usullari, ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy qilish va dissertatsiya tuzilishi bo’yicha ma’lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning “**Jamol Kamol she’riyatining mavzu mundarijasi**” deb nomlangan ilk bobi ikki fasldan tashkil topgan. Birinchi faslda “**Shoir she’riyatining mavzu ko’lami**” masalasi tadqiq qilingan. Jamol Kamolning umr yo’liga e’tibor berilsa, uning shoir, tarjimon, olim, publitsist, dramaturg sifatida faoliyat yuritganiga guvoh bo’lish mumkin. Uning ijodi Vatan, tabiat, sadoqat, mehr, muhabbat, ma’rifat kabilardan tortib adolat, do’stlik, ota, ona, halollik, diyonat singari ezgulikka, taraqqiyotga, hayotda kurashchanlikka chorlovchi ko’plab mavzularni qamrab olgan. Mavzularning bu qadar ko’lamdorligi ijodkorning keng qamrovli tafakkuri bilan bog’liq, albatta. Taniqli rus adibi M.Gorkiy: «mavzu muallif tajribasida bunyodga kelgan, hayotning o’zi ko’rsatib bergan, ammo hozircha muallif tasavvurida hali to’la-to’kis shakllanmagan bir holda saqlanib, obrazlarda gavdalantirishni talab qilib, muallifda ishlashga mayl uyg’otadigan g’oyadir»⁴, – deganda ham mavzu va g’oyaning muallif tafakkuri qamroviga bog’liqligini ta’kidlaydi.

Kuzatishlarimiz asosida Jamol Kamol she’riyatining mavzu ko’lamini quyidagicha tasnifladik:

1. Ishq-muhabbat mavzudagi she’rlar;
2. Vatan mavzusidagi she’rlar;
3. Ma’naviy-axloqiy mavzudashi she’rlar;
4. Diniy-ma’rifiy mavzudagi she’rlar;
5. Siyosiy-ijtimoiy mavzudagi she’rlar v.b.

⁴ Бадий ижод ҳақида. – Тошкент: Ўзадабийнашр, 1960. – Б.9.

Shoir ijodidagi «Eng buyuk tuproq», «Tun. Bog'imda kezaman...», «O'zbekiston tuni», «Buyuk trassa ilhomi», «Ufuqlar», «Tasavvur» kabi dastlabki she'rlarda Ona vatanning daryolari-yu kengliklari, tog'lari-yu bog'lari, tunlari-yu tonglari – barcha-barchasidan hayratlanish ustuvorligi ko'zga tashlanadi.

Vatan mavzusi – Jamol Kamolning g'azallarida ham asosiy mavzulardan biri. Uning «Vatan», «Avval Vatan, keyin jon» kabi she'rlari mumtoz janrlarda ham bu mavzuda qalam tebratish mumkinligini to'la-to'kis isbotlab bergan.

Shoir ijodining dastlabki namunalarida Vatan va uning tabiatidan hayratlanish kuzatilsa, keyingi davrlariga xos she'rlarda mavzuga falsafiy mushohada yuritish bilan yondashilgan. Jamol Kamol uchun Vatan eng buyuk boylikdir. Uni asrash har bir inson chekiga tushgan eng avvalgi vazifa:

*Kiprik ketar, ko'z qolar,
Qolar Vatan – jonajon.
Jamoldan shu so'z qolar:
Avval Vatan, keyin jon!..*⁵

She'riyatda «Avval Vatan, keyin jon!..» deya urilgan bong Jamol Kamolning o'ziga xos topilmasi. Ifoda usullarini qo'llashda shoir janr imkoniyatlariga mohirlik bilan yondashadi. Shuningdek, keng qamrovli mavzu o'z ichida torroq mavzularga bo'linadi. Shoir qaysi mavzuda yozsa ham o'tmishdan kelajakkacha, zarradan koinotgacha – barchasini hissiy tafakkur prizmasida tizadi.

Bobning keyingi fasli **“Ijtimoiy mavzu va badiiy talqin”** deb nomlanib, unda Jamol Kamolning publitsistik mahorati, shu bilan birga ba'zi ijtimoiy mavzularining she'rga aylanish tamoyillari tahlil qilingan.

Jamol Kamolning ijtimoiy-ma'rifiy mavzudagi she'rlarida jamiyatni oyoqqa turg'izish, millatga o'zligini anglatish, ma'naviyatni yuksaltirish borasida bir qator g'oyalar ilgari suriladiki, bu g'oyalarning aksariyati global ahamiyat kasb etadi. Ijodkorning maqolalaridagi mazvular uning she'riyatida ham qayta gavadalangan. Shoirning «Avval vatan, keyin jon...», «O'zbekiston ayblidurmu?», «Yonayotgan dala...», «Xalqim», «Azaliy savol», «BMTga maktub», «Usmon Nosir», «Menga nima? Senga nima?», «Aylama», «Aytsinlar», «Qo'shnilar», «Yetdingmu?», «Taajjub qilaman...» kabi qator she'rlari bu borada fikrimizni to'la asoslay oladi.

Publitsist jamiyatimizning faol a'zosi sifatida «Eshiksiz qo'rg'on» nomli suhbatda sobiq Sovet Ittifoqining parchalanishi, yangi davlatlarning paydo bo'lishi, iqtisodiy muammolarning yuzaga kelishidan so'z yuritir ekan, globallashuvning ob'yektiv tarixiy jarayon ekanligiga ishora qiladi. Jamol Kamol jumhuriyatimizning sho'ro tuzumidagi yetmish uch yilini uy-qamoqqa mengzaydi. Turli-tuman siyosiy atamalar o'rnida qo'llangan o'xshatish fikrni barcha o'quvchi uchun birday aniq, sodda va ravon qilib tushuntirishga asqotgan.

Dunyo davlatlari bizdan yuzlab yillar ilgarilab ketgan. Kutib turishga fursat yo'q. Taraqqiyot uchun dunyo iqtisodiyotiga qo'shilish kerak. Jamol Kamolga ko'ra, «*dunyodan uzilgan taraqqiyotdan uziladi. Dunyoga tutashgan taraqqiyotga tutashadi*»⁶. Ya'ni «O'tgan asrning to'qsoninchi yillariga kelib ... globallashuv

⁵ Жамол Камол. Сайланма. VII жилдлик. II жилд. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2018. – Б. 6.

⁶ Жамол Камол. Сайланма. VII жилдлик. III жилд. – Тошкент: Янги аср авлоди. 2018. – Б. 23.

g'oyasining ommalashuv davri boshlandi»⁷. Bu g'oya «tambalangan eshiklar» o'sha Sovet Ittifoqi hududlariga ham kirib kela boshlagan edi.

Ushbu fikrlar shorning «Dunyo yo'li» g'azalida ham akslangan:

*Boq, bugun qaydin kelib,
Ketgay qayon dunyo yo'li,
Har qadam mehnat-mashaqqat,
Tashvish-u g'avg'o yo'li...*⁸

Yurtlarni tashqi dunodan sun'iy uzish mumkin emas. Bu bilan taraqqiyotga erishib bo'lmaydi.

Jamol Kamol «Navoiy va biz» maqolasida e'tibor qaratgan jihati Navoiy ijodini din, shariat bilan cheklab bo'lmashligidadir. Lekin mutaassiblar «siyratga emas, suvratga boqishgan. Aql-u zakovat egalariga qarshi kaltak ko'tarishgan, ne-ne buyuklarning payini qirqishgan... Darvoqe, dunyoda yashash dunyoni uzluksiz kashf etishdan iborat emasmi?»

Xullas, Jamol Kamol nafaqat, ma'naviy saviyani ko'tarishda, balki jamiyatning haq-huquqini himoya qilishda, adolatni qaror toptirishda, vatanni sevib, ko'z qorachig'idek asrashda jonbozlik ko'rsatgan. Jamol Kamol publitsistikasi bilan tanishar ekanmiz, unda din va e'tiqoddan tortib ilm-u ma'rifatgacha, siyosiy, iqtisodiy qoloqlikdan taraqqiyotgacha, ekologik muammolardan til, millat va uning ma'naviyatigacha keng kamrovli mavzularda fikr yuritilganligiga guvoh bo'lamiz. Publistsist o'z qarashlarini obrazli ifodalarda sodda va ravon uslubda, millatning jonkuyar farzandi sifatida bayon etgan. Uning publitsistikasidagi aktual mavzular ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy-ma'rifiy she'riyatida ham qayta gavdalangan.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi **“Jamol Kamol she'riyatining obrazlar olami”** deb nomlanib, uning birinchi faslida **“Jamol Kamol she'riyatida an'anaviy obrazlar”** tadqiq etilgan.

Ko'ngil obrazi Jamol Kamol ijodida ham muhim o'rin egallaydi. Shoirning o'z ta'biri bilan aytganda, ko'ngil – Allohning mo'jizasi. Shunday ekan, uning she'riyatida ham bu mo'jizaviy obraz alohida ahamiyat kasb etadi. Chunki shoir she'r yozmaydi, balki qalbni tarjima etadi:

*Shoiro, sindir qalamni,
Qo'y, kerakmas jimjima,
Sen mening ruhimga kir,
Qalbimni etgil tarjima...*⁹

Jamol Kamol she'riyati ko'ngilni obrazlashtirish jarayonida uning holatlarini turli xil usullarda ochib beradi: 1) ko'ngil gapirtirilishi (intoq) orqali; 2) lirik qahramon falsafiy qarashlari vositasida; 3) lirik qahramonning ko'ngilga gapirish yo'li bilan va hokazo.

«Olam kirar yuragimga» she'ri Jamol Kamol she'riyat olamiga kirib kelgan ilk yillarida yozilgan. «Tuyg'ulariga suqlangan lirik qahramonning orzulari tasvirlangan ushbu misralar o'zbek adabiyotiga voqeaband kechinmalarning lirik musavviri

⁷ Глобаллашув: бадий талкин, замон ва қаҳрамон. – Тошкент: «Фан», 2018. – Б. 7.


⁸ Жамол Камол. Сайланма. VII жилдлик. II жилд. – Тошкент: Янги аср авлоди. 2018. – Б. 118.

⁹ Жамол Камол. Яна қўнғимда ул ой. – Тошкент: MERIUS. 2010. – Б. 149.

bo'lgan buyuk qalb egasi kirib kelishidan dalolat edi».¹⁰ O'shanda u 22 yoshda edi. Bu davrda shoir qalbi tabiat go'zalligidan ilhomlanish, olamning sirlarini bilish, yoshlik zavqidan bahramand bo'lish, sirli kelajakdan umid tug'yonlari bilan to'lgan payt. O'sha paytlardanoq yosh Jamol tunlar bilan suhbat qurib she'r dunyosiga kirib keldi. Tunning osudaligi, oyning shu'lasini, daryoning «qo'shig'i» uni ilhomlantirdi.

*Olam kirar yuragimga
ming jilva bilan,
Daryo – qo'shiq,
Oqshom – shafaq,
Oy shu'la bilan,*¹¹

Satrlar kuchini sxemalarda ko'rsak, fikr yanada oydinlashadi:



Adabiyotdagi an'anaviy obrazlardan biri **dunyo obrazidir**. Dunyoning buqalamunligi – makr-u hiylalarga egaligini ifodalovchi she'rlar mumtoz adabiyotda ko'plab uchraydi. Ahmad Yassaviy «*Vafosi yo'q yalg'onchidur ushbu dunyo*» desa, Alisher Navoiy bunday insho etadi:

*Jahoni buqalamun ichra tushmish elga gudoz,
Magarki tosig'a o't yoqti charxi shu'badaboz.*¹²

Ya'ni: aldamchi dunyoning tog'orasiga o'yinchi charx o't yoqqani uchun xalq kuyadi – ozor chekadi. Jamol Kamol ham olamni qancha ko'p kuzatsa, uning sir-sinoatlarga boyligini shuncha ko'p anglaydi. Shoirga ko'ra, bu tovlanishlarni tavsif va talqin etish qiyin, albatta:

*... Olamni o'yladim gahi,
Olam sinoati
Qoshimga keldi bosh egib,
Talqin etolmadim. (57-b.)*

Xullas, Jamol Kamol she'riyatida an'anaviy obrazlar ko'plab uchraydi. Shoir she'riyatida bu obrazlar shunchaki takror emas, balki davr nuqtayi nazaridan yangilangan obrazlardir. Shoir bu obrazlardan xoh barmoq vaznida bo'lsin, xoh

¹⁰ Қаршиев К. Жамол Камол шеъриятида жанрлар ва шакллар ранг-баранглиги: Филол. фан. бўйича фалсафа д-ри (PhD) ... дисс. – Самарқанд, 2022. – Б. 121.

¹¹ Жамол Камол. Сайланма. VII жилдлик. II жилд. – Тошкент: Янги аср авлоди. 2018. – Б. 24.

¹² Алишер Навоий. Тўла асарлар тўплами. X жилдлик, I жилд – Тошкент: Ғ.Ғулом номидаги нашриёт-матбаа ижод уйи, 2011. – Б. 220.

aruzda, zamonaviy she'riyatda ham birday foydalanish, ezgulikni ulug'lovch g'oyalarni bugungi kunda ham badiiy ifodalashda qo'llash mumkinligini isbotlab bera olgan. Hatto an'anaviy obrazlarni turli janrdagi she'rlarda ham yangi qirralari bilan qo'llagan. Uning an'anaviy obrazlar aks etgan she'rlari kitobxonni mumtoz she'riyatga tomon yetaklaydi va, o'z navbatida, mumtoz she'riyatga bugunning nafasini olib kiradi.

Bobning keyingi faslida **“Jamol Kamol ijodida Navoiy siymosi”** o'rganilgan. Jamol Kamol mumtoz, xususan, Navoiy ijodiga xos she'riy an'analarni munosib tarzda davom ettirib, ularga o'zining keng qamrovli tafakkuri bilan yondashgan shoir sifatida buyuk shoirning obraziga ham takror va takror murojaat qildi. Jamol Kamol Navoiyga ergashib g'azal yozishga kirishar ekan, ramali musammani mahzuf vazni yordamga keladi:

Mir Alisher xoki poyin

Ko'zga surtarman, Jamol,

To yozay deb ko'z nurim birlan

*Guli ra'no g'azal...*¹³

«Navoiy qo'lga kiritgan ijodiy yutuqlarning bosh sababi uning til san'atkori o'laroq o'zbek tilining go'zalligi va ifoda imkoniyatlarini ochishda behad ilgarilab ketganidir»¹⁴, – deydi taniqli navoiyshunos Ibrohim Haqqul. Chunki shoirning yuksak ma'naviy va ma'rifiy qarashlari o'zbekona yangradi. Jamol Kamol ham, ayniqsa, ona tili masalasiga kelganda Navoiy dahosini yuksak qadrlaydi. Barcha umidni undan kutadi.

Mutafakkir shoir xalqimizga o'zbek tilini nurli shamshir yanglig' toblab berdi. Shuning uchun Navoiy bashariyatga iymon nuri bo'ldi, demoqchi shoir. Chunki «Alisher Navoiy turkiy tilning buyuk qudratini avval amaliy isbotlab, keyin ilmiy asoslagan edi»¹⁵.

Xullas, Jamol Kamol she'rlarida Alisher Navoiy obrazi ulug' ustoz, ham ijodi, ham amali bilan ma'naviy rahnamo – pir sifatida keltirilgan. Bu she'riyatda Navoiy yaratgan asarlarni o'qish, uning qahramonlari bilan yaqindan tanishishga da'vat bor. Ayniqsa, millat, til, Vatan, adabiyot mavzulari tarannum etilgan she'rlarda mutafakkirning buyuk siymosi bosh mezon vazifasini o'tagan.

Tadqiqotning uchinchi bobida **“Jamol Kamol dostonlarida mavzu, mazmun va g'oya mutanosibli”** o'rganilib, bobning birinchi fasli **“Doston syujeti va tarixiy shaxs talqini”** deb nomlanadi. Jamol Kamolning dostonnavislikda yuksak natijalarga erishgani ma'lum. Professor N.Rahimjonov shoir dostonlarini tahlil qilar ekan, «Tosh tug'yon»da Oybekning ijodiy tasavvurida jonlangan o'tmish voqeligining xarakterli kartinalari, holatlari poetik assotsiatsiya orqali o'quvchi ko'z o'ngida gavdalantirilganligi, «Armon»da qahramon taqdiri o'zining psixologik kechinmalari, ruhiy tasviri orqali assotsiativ planda aks ettirilganini aytadi¹⁶. Filologiya fanlari doktori Sh.Hasanov Jamol Kamol va boshqalarning dostonchiligida «60-yillardan e'tiboran Vatan xususidagi asarlarda tarixiylik,

¹³ Жамол Камол. Сайланма. VII жилдлик. I жилд. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2018. – Б. 261.

¹⁴ И.Ҳаққул. Навоийга қайтиш – 2. – Тошкент: Фан, 2011. – Б. 5.

¹⁵ Жамол Камол. Сайланма. VII жилдлик. III жилд. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2018. – Б. 242-243.

¹⁶ Раҳимжонов Н. Ўзбек совет адабиётида поэма. – Тошкент: Фан. 1986. – Б. 48.

o'tmish ajdodlarning yodi va ruhi yetakchi tasvir usuli»¹⁷ bo'lganligiga diqqat qaratgan. Chindan ham Jamol Kamol qaysi mavzuda doston yozmasin, vatanparvarlik ruhi sezilib turadi.

Mazkur tadqiqotida uning hali yetarlicha bahosini olmagan «Navoiy muhabbati», «Shayxurrais», «Faylasuf», «Shayxzoda» kabi so'nggi dostonlarini tahlilga tortilgan.

Jamol Kamol umr bo'yi Navoiyning muhibi, muxlisi, izdoshi bo'lib yashadi. Mutafakkir shoirning ummon yanglig' ijodi, hayot yo'li uni ohanrabodek o'ziga tortdi. Bu bedorlikning samarasi o'laroq shoir hayotining so'nggi yillarida «Navoiy muhabbati» dostonini yaratdi. Oybekning «Guli va Navoiy» dostoni ham ayni mavzuda. Ikkala asar syujetini qiyoslab, aytish mumkinki, Jamol Kamol Oybekning dostonidan ta'sirlanmagan deyish noo'rin. Ammo Oybek asarini afsona syujetiga asoslanib bitgan bo'lsa, Jamol Kamol dostoni syujetini Navoiy ijodidagi badiiy faktlarga tayanib quradi.

Dostonda Jamol Kamol Alisher ko'plab ustozlardan tahsil olganligini, Ulug'bek, al-Buxoriy, Moturudiy kabi allomalarning asarlari bilan yaqindan tanishganligini nazmga solgan. Navoiyning Hirotdan Mashhadga, u yerdan Samarqandga ko'chish voqealarini muallif doston syujeti talabidan kelib chiqib muhabbat rakursida aks ettirgan. Navoiyning real hayoti bilan bog'liq ko'plab voqealardan voz kechgan yoki ularni asar syujetiga xizmat qildirgan.

G'azal devoni elga manzur erdi,

*G'azal bobida nomi mashhur erdi.*¹⁸

«Navoiy muhabbati» dostonida muallif faxriya baytlarni, fikr va g'oya bilan bir qatorda, asar vazniga mos «Farhod va Shirin» dostonidan keltiradi.

Asardagi barcha qahramonlar tarixiy shaxs bo'lib, undagi voqealar ham, deyarli, tarixiy voqelikning nazmga solingan shaklidir. Bu esa o'quvchiga doston mazmunini anglab olishda qo'l keladi.


Jamol Kamolning «Shayxurrais» dostoni buyuk tabib va faylasuf Ibn Sino haqida. Sharq-u G'arbni o'z tafakkuri bilan lol qoldirgan donishmand haqida o'zbek adabiyotida ilgari ham asarlar yaratilgan. Donishmand haqidagi Jamol Kamol dostoni ulardan syujeti va uslubi bilan ajralib turadi, albatta. Xususan, u bilan bir janrda yozilgan «Hakim va ajal» dostonida syujet bir voqeaga asoslansa, «Shayxurrais» dostoni Ibn Sino hayotini obzor tarzda yoritadi. «Hakim va ajal» dostonida Abu Ali Ibn Sino hayoti va taqdiri misolida hayot va o'lim masalasi ijtimoiy-falsafiy yo'nalishda o'rganiladi. Ezgulik va yovuzlikning boqiy kurashi tarzida badiiy talqin etiladi».¹⁹ Jamol Kamol dostonida Ibn Sinoning ilm yo'lidagi chekkan zahmatlari evaziga erishgan yutuqlari, mashhurlikka erishishi qalamga olingan.

Doston voqealari bog'liqligini quyidagi sxemada ko'rish mumkin:

¹⁷ Хасанов Ш. Замонавий дoston поэтикаси. – Самарқанд, 2001. – Б. 48.

¹⁸ Жамол Камол. Сайланма. VII жилдлик. VII жилд. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2018. – Б. 93.

¹⁹ Жабборов И. Абдулла Орипов шеъриятида тарихий шахс концепцияси ва лирик қаҳрамон масаласи: Филол.фан.номз. ... дисс. автореф. – Тошкент, 2008. – Б. 14.



Dostonnavislikda yuksak natijalarga erishgan Jamol Kamol bu janrda tarixiy shaxslar hayotini ham oʻziga xos uslubda yoritgan. Jamiyatni maʼrifatli qilish, millatni hur va ozod koʻrish, adolatni bosh mezon qilish kabi gʻoyalarni ifodalashda tarixiy shaxslarning hayot yoʻli, amallari va asarlaridan samarali foydalangan. Bunda u, avvalo, tarixiy shaxslar hayotini, qoldirgan maʼnaviy merosini yaqindan oʻrgangan. Ijodkor tarixiy shaxslar hayoti bilan bogʻliq faktlarga mantiqiy asosda badiiy yondashgan, oʻz nuqtai nazaridan mavzuni yoritgan.

Bobning keyingi fasli ham yuqoridagi mavzuning uzviy davomi boʻlib, unda muammo **“Zamonaviy mavzudagi dostonlarda obraz, lirik qahramon va muallif «men»i”** tarzida tadqiq etilgan. Tadqiqotchi D.Nazarova Jamol Kamol dostonlariga diqqat qaratib ularning mazmun-mundarijasini besh guruhga ajratgan: a) tarixiy mavzudagi dostonlar («Varaxsha»); b) urush mavzusidagi dostonlar («Armon», «Eshikda oy toʻlqini», «Quyosh chashmasi»); d) zamonaviy mavzudagi dostonlar («Hasan va oy»); e) milliy ozodlik mavzusidagi dostonlar («Jamila»); f) axloqiy mavzu talqinidagi dostonlar («Shahribonu»)²⁰.

